NEW RENAISSANCE international scientific journal
ResearchBib IF - 11.01, ISSN: 3030-3753, Volume 3 Issue 11

BOLALARNI ZO`RAVONLIKNING BARCHA TURLARIDAN HIMOYA QILISH

Ismoilova Ruxshona
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi va jurnalistika fakulteti 1-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24220111

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunning globallashgan mavzularidan biri - zo'ravonlik haqida so'z yuritiladi. Zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari keng yoritiladi va jismoniy, ruhiy, iqtisodiy, jinsiy hamda zo'ravonlikning boshqa turlari, jumladan, oila, jamiyat hamda individual hayotga ta'siri, oqibatlari, sabablari, shu bilan birgalikda yechimlari ham keng ko'lamda yoritiladi. Zo'ravonlikning oldini olishda ta'lim-tarbiya, psixologik yordam, huquqiy savodxonlik, davlat va fuqarolik jamiyatining bir-biriga uzviy aloqadorligi ahamiyati ochib beriladi.*

Abstract. *This article discusses violence, which is one of the highly globalized topics of our day. The issues of preventing and combating violence are thoroughly covered. The causes, consequences, and solutions regarding physical, psychological, economic, sexual, and other types of violence - including their impact on family, society, and individual life - are comprehensively highlighted. Furthermore, the significance of education, psychological support, legal literacy, and the interconnectedness between the state and civil society in preventing violence is revealed.*

Kalit so'zlar: *zo'ravonlik, psixologik bosim ostidagi va oilaviy zo'ravonlik, inson huquqlari, jabrlanganlarga yordam, qonuniy jazo, ijtimoiy yordam, yoshlar tarbiyasi, gender tengligi, oila, jamiyat.*

Keywords: *violence, domestic and family violence under psychological pressure, human rights, assistance to victims, legal punishment, social assistance, youth upbringing, gender equality, family, society.*

KIRISH. Millatning taraqqiyoti, avvalo, unda xalq farovonligi, jamiyat xavfsizligi hamda insonlarning tinchligi, ayniqsa, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari qay darajada ta'minlanganligi bilan belgilanadi. Har bir shaxs o'zini erkin va xavfsiz his qila oladigan, uning haq-huquqlari hurmat qilinadigan jamiyatgina takomil, barqaror va farovon yurt sifatida yuksaladi. Shu bois, zo'ravonlikning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashish bugungi kunning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biridir. Zo'ravonlik tushunchasi faqat jismoniy kuch ishlatish bilan chegaralanmaydi.

Insonni haqoratlash, tahdid qilish, majburlash, qo'rqitish, iqtisodiy jihatdan qaram holatga tushirish, ijtimoiy aloqalarini cheklash kabi xatti-harakatlar ham zo'ravonlikning turli ko'rinishlari hisoblanadi. Zo'ravonlik turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Eng ko'p uchraydigan ko'rinishlar quyidagilardan iborat: Ruhiy zo'ravonlik - insonni haqoratlash, kamsitish, qo'rqitish, doimiy tahdid qilish yoki bosim ostida ushlash orqali uning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishdir. Jismoniy zo'ravonlik - bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishi, unga tan jarohati yetkazishi yoki uning tanasini shikastlashi kabi harakatlardir. Iqtisodiy zo'ravonlik - shaxsning mehnati, mablag'lari yoki iqtisodiy imkoniyatlarini asossiz ravishda nazorat qilish yoki cheklash bilan bog'liq. Raqamli zo'ravonlik esa zamonaviy texnologiyalar va internet orqali tahdid qilish, ta'qib etish, haqoratlash yoki bosim o'tkazish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Jinsiy zo'ravonlik- insonning roziligisiz jinsiy xarakterdagi harakatlarga majburlashni anglatadi.

Shunday ekan, zo'ravonlikni faqat ko'zga ko'rinadigan jismoniy jarohat bilan o'lchash mumkin emas. Ba'zan insonning ruhiyatiga yetkazilgan zarar ham uzoq davom etadigan salbiy oqibatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'zbekistonda zo'ravonlikka qarshi ma'lum qonunlar yo'lga qo'yilgan. Jumladan, bolalarni himoya qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdagi O'RQ-996-son "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni bolalarni har qanday zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 31-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2024-yil 15-avgustda ma'qullangan. "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 1-bobi, 3-moddasida "bolaning hayotiga to'g'ridan to'g'ri zulm qilish, tajovuz qilish, sog'lig'iga, qadr-qimmatiga putur yetkazish yoki qasddan zarar yetkazish va ruhiy, jismoniy bosim ostiga olish, uyushtirilgan jinoiy harakatlar bolalarga nisbatan zo'ravonlik qilish deb belgilanadi.

Bolalarga nisbatan qasddan qilingan zo'ravonlikning barcha shakllari taqiqlanadi va bolalarning haq-huquqi qonun bilan himoyalanadi. Har bir bola nafaqat butun jamiyat, balki davlat himoyasi ostidadir. Albatta, farzand oldida ota-onaning ham o'z vazifa va burchlari bor - bu ham ushbu qonunda belgilangan. Bolani majburiy mehnatga jalb etish, ta'lim olishdan cheklash yoki yetarlicha imkoni bo'la turib to'liq ta'minlab bermaslik va mehnat bozoriga va erta turmush qurishga majburlash, diniy ta'lim olish va axloqiy, jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatsa - bolalarni ekspluatatsiya qilish" ta'kidlangan[1].

Toshkent shahar IIBB ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning dastlabki 10 oyida tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga 1623 ta himoya orderi berilgan. Ularning 1063 tasi ruhiy zo'ravonlik, 457 tasi jismoniy zo'ravonlik, 58 tasi iqtisodiy zo'ravonlik va 45 tasi boshqa turdagi tazyiq bilan bog 'liq. Ayniqsa, ruhiy zo'ravonlik bilan bog'liq holatlarning ko'pligi jamiyatda inson ruhiyatiga ta'sir qiluvchi zo'ravonlik shakllariga ham yetarlicha e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi[2].

Biroq himoya orderlari sonini zo'ravonlikning jamiyatdagi umumiy tarqalish ko'rsatkichi sifatida qabul qilish to'g'ri emas. Chunki statistik ma'lumotlar aniqlangan va tegishli tashkilotlarga murojaat qilingan holatlarni aks ettiradi.

Zo'ravonlikning kelib chiqishini bitta sabab bilan ifodalab bo'lmaydi. Turli xil holat va vaziyat yuzasidan kelib chiqishi mumkin. Jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, tarbiyaviy omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Avvalo, oiladagi tarbiya muhim ahamiyatga ega. Bola muammolarni zo'ravonlik orqali hal qilish mumkin degan tushunchada ulg'aysa, bunday xatti-harakatni keyinchalik o'z munosabatlarida takrorlash ehtimoli mavjud. Shuningdek, huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi ham muammoning chuqurlashishiga sabab bo'lishi mumkin.

Qachonki jamiyat o'z konstitutsiyaviy haq-huquqlarini chuqur bilmas ekan, uning sha'ni, qadr-qimmati, huquqlari doimo poymol etiladi. Bunga yechim esa butun jamiyatning huquqiy savodxon bo'lishi va o'zligini himoya qila olishidir.

Kichik zo'ravonlikni odatiy hol deb hisoblash yoki yoshlik qilib, saviyasi yetmagan deya yashirish yoki bo`lamsa uni "tarbiya usuli" deb oqlash ham salbiy oqibatlarga olib kelishi tabiiy hol. Negaki har bir ish kichik zarralardan boshlanadi. E'tiborga olinmagan kichik bir tajovuz kun kelib katta zo'ravonlikka aylanishi mumkin. Sodir etilgan jinoyat va zo'ravonliklarga duch kelgan paytimiz yoki guvoh bo'lgan paytimizda tegishli mas'ul xodimlariga murojaat qilishimiz eng to'g'ri yo'l. Jamiyat zo'ravonlikka nisbatan befarq tarzda shakllanmasligi darkor.

[1] https://lex.uz/docs/-7219502
[2] https://www.gazeta.uz/ru/

Zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha vakolatli organlar mavjud: bular Vazirlar Mahkamasi, Bolalar ombudsmani, Milliy komissiya, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, ichki ishlar organlari, prokuratura, Milliy gvardiya hamda ta'lim va sog'liqni saqlash organlaridir.

Jinoyat kodeksi 118-moddasi 4-qismi voyaga yetmagan, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxsning nomusiga tegish jinoyatini nazarda tutadi. O'RQ-829-sonli Qonun (11.04.2023) bilan kiritilgan tahrirga muvofiq, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar uchun jazolarni keskin kuchaytirish maqsadida ushbu modda yangilangan[3]. Ushbu qonunda xotin-qizlarga va voyaga yetmagan ya`ni 18 yoshga to`lmagan shaxslar uchun qilingan zo`ravonliklarning jazo muddati 5 yildan 20 yilgacha deb belgilangan va bu vaqt ichida jinoyatchilar jazosini hech qanday kelishuvlarsiz,murosalarsiz o`taydi. Ya`ni muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish choralari qo'llanilmaydi**.** Chunki bu usuldagi jinoyatni sodir etganlar uchun jazo choralari keskinlashtirilgan. Zo'ravonlikning turli shakllari (ruhiy, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy va ijtimoiy)dan jabrlangan bolalar uchun ichki ishlar organlari tomonidan 24 soat ichida, 30 kungacha bo'lgan muddatga himoya orderi joriy etilgan va bu sud tomonidan 1 yilgacha uzaytirilishi mumkin.Jumladan, 2026- yil sentyabr oyida sodir bo`lgan mudhish voqea hammamizni larzaga soldi. Namanganda 5-yoshli bog`chada tarbiyalanuvchi qizchaning bog`chada ombor mudiri bo`lib ishlaydigan yoshi katta erkak tomonidan zo`rlangani ommaga keng tarqaldi. Aynan, ushbu holat yuzasidan Ichki ishlar vazirligi va bolalar ombudsmani rasman e`lon qilgan va bu organlar jabrlanuvchi qizchaning huquqlari buzilmasligini to`liq nazoratga olgan. Endilikda, MMT ga ishga qabul qilinuvchi xodimlarga bo`lgan nazorat qat`iy kuchaytiriladi, psixologik, norgologik tekshiruvlardan o`tiladi va doimiy kamera kuzatuv ostida ishlaydi. Bu esa, albatta, zo`ravonlikning oldini olish uchun amalga oshirilayotgan jarayondir.

Jamiyatning huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim tashkilotlarida zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha doimiy profilaktik va ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, oilalarda ichki nizom va tajovuzsiz kelishuvlarni hamda ijobiy tarbiyani me'yorga keltirish, zo'ravonlikning ma'lum bir shakllaridan jabrlanganlar uchun psixologik va ijtimoiy yordam tizimini kuchaytirish, zo'ravonlik bo'yicha statistik ma'lumotlarni doimiy ravishda yig'ish, o'rganish, tahlil qilish, nazoratni kuchaytirish va oldini olish, shu bilan birgalikda, insonlar va jamiyat o'rtasida sodir etilgan zo'ravonlikni yashirish emas, balki uning oldini olish uchun sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish kabi omillar zo'ravonlikning oldini olishda yordam beradi.

Xulosa. Zo'ravonlik butun dunyo aholisini tashvishga solayotgan global muammolardan biridir. Zo'ravonlik bu o'z-o'zidan sodir etiladigan jarayon emas, balki insonlarning manqurtligi, huquqiy savodsizligi va aqliy saviyasi pastligi va o'quvsizligi, shahvoniy hissiyotlarga berilishi natijasida sodir etiladigan razillikdir.

Oilada berilyotgan tarbiyaga bee`tibor bo`lish va bolalar tarbiyasini nazoratsiz qoldirish, zo`ravonlikka nisbatan jamiyat befarq holda bo`lishi va insonlarning noto'g'ri qarashlarda shakllanishi zo'ravonlikni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Albatta, zo'ravonliklarning sonini kamaytirish va oldini olish borasida yurtboshimiz ko'plab qonuniy choralar, yechimlar va turli imkoniyatlar yaratgan. Jumladan, himoya orderi, bolalarni muhofaza qilish va jabrlanganlar uchun yordam berish - har bir ko'rsatilayotgan va berilayotgan bu imkoniyatlarning barchasi bitta maqsad ostida amalga oshirilmoqda, ya'ni zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan.

[3] O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 118-modda 4-qism (O'RQ-829-sonli Qonun, 11.04.2023 tahririda) // https://www.lex.uz/ru/docs/-6430272

Shu jumladan, Saida Mirziyoyevaning "Xalqaro ayol sudyalar kuni"ga bag'ishlangan assotsiatsiyasida ayol sudyalar alohida rag'batlantirilgan va gender tengligini respublika bo'ylab targ'ib qilish va qonunning barcha uchun barobarligini singdirish asosiy vazifa sifatida ko'rib chiqilgan. Bolalarga nisbatan qilingan jinoyat va zo'ravonlikka mutlaqo murosa qilinmasligi va qonun barcha uchun barobar ishlashi shart ekanligini ta'kidlagan.

Har bir yosh qizaloq, balki jamiyatning butun ayollari bir narsani bilishi shart, ya'ni ular doim davlat himoyasi ostida va davlat ularni himoya qilishga majbur ekanligini, ayol-qizlarni hech kim jimgina zulmga chidashga majbur qila olmasligini bot-bot takrorlab o'tgan.

Zo'ravonlikning oldini olish uchun, albatta, davlat mas'ullari yetarlicha choralar ko'rishmoqda, ammo bu faqatgina davlatning siyosiy ishi bilan hal bo'ladigan jarayon emas.

Bunda har bir shaxs, jamiyat tenglikda ishlashi, qonunlarga bo'ysunishi va insonlarning qadr-qimmatini hurmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 118-modda 4-qism (O'RQ-829-sonli Qonun, 11.04.2023 tahririda) // https://www.lex.uz/ru/docs/-6430272
2. https://lex.uz/docs/-7219502
3. https://www.gazeta.uz/ru/
4. https://daryo.uz/
5. https://zamin.uz/uz/